

NIMA UCHUN TALABA KITOB O'QIMAY QO'YDI?

Abdurashidov Xurshid Qo'ldosh o'g'li

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

Buhgalteriya Hisobi va Menejment fakulteti BH-423 guruh talabasi

[*xurshidabdurashidov2005@gmail.com*](mailto:xurshidabdurashidov2005@gmail.com)

O'rinboyeva Yulduz Pirnazarovna - I.f.f.dok. dotsent

[*Ulduzurunbaeva75@gmail.com*](mailto:Ulduzurunbaeva75@gmail.com)

Annotatsiya : Bundan 20 yil oldin bitta kitobni o'qish uchun navbatga turgan talabalar bugungi kunda elektron kitoblar o'qimay qo'ydilar. Ular vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda bekorchi narsalar bilan o'tkazishmoqda.

Kalit so'zlar: Talaba, kitob, ijtimoiy tarmoqlar, elektron kitob, korrupsiya, OTM, abituriyent.

Talaba (arabcha: izlovchi, o'rganuvchi; lotincha: studens — qunt bilan ishlovchi, shug'ullanuvchi) — O'zbekistonda oliy o'quv yurti, AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa ayrim mamlakatlarda oliy va o'rta maxsus o'quv yurti o'quvchisi. Turkistonda islom dini yoyilgach (7— 8-asr), boshlang'ich maktabdan so'ng bilim olish bilan mashg'ul bo'lgan har bir kishi Talaba hisoblangan. Madrasalar paydo bo'lgan X asrlardan ularda tahsil olayotgan kishilargina Talaba deyila boshlagan. Yevropada 11-12- asrlarda universitetlar tashkil topgandan so'ng, ularda faoliyat ko'rsatadigan har bir odam, ya'ni saboq beruvchi ham, saboq oluvchi ham student deb atalgan. Keyinchalik uniiversitetlarda o'qituvchilar uchun magistr, professor va boshqa ilmiy unvonlar joriy etilgach, faqat saboq oladigan kishilargina student deb yuritiladigan bo'lgan.

Talaba jamiyat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va ayni vaqtda, har bir mamlakat ilmiy intellektual salohiyatining darajasini bildirib, rivojlanish istiqbollari belgilab beradi. Chunki mamlakat iqtisodi va madaniyatining yuksalishi, xalq xo'jaligiga ilm-fan yutuqlari joriy etilishi uchun oliy maktablarning Talabalari chuqur nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim.[1] O'zbekistonda 2022/23 o'quv yili boshlangan paytda talabalarning umumiy soni 1 040 400 nafarga yetgan. Talabalarning 544 800 nafari yigitlar, 495 600 nafari esa xotin-qizlar hissasiga to'g'ri keladi.

2021 yilning 1 yanvar holatiga YuNeSKOning Statistika instituti ma'lumotlariga ko'ra, xorijda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 85,9 ming nafarni tashkil etgan[2]

Bir so'z bilan aytganda talabalar mamlakatimiz ravnaqi uchun uchun hissa qo'shadigan kadrlardir. 2020-yildan boshlab abituriyentlar 5 ta yo'nalishda o'qishga

hujjat topshirishlari mumkin bo'ldi. Kvotalar soni yildan-yilga ko'paymoqda. Masofaviy ta'lim tizimi joriy etildi. Xo'sh bu imkoniyatlar o'zini oqlayaptimi ?

"O'qishga kirish oson. Lekin o'qish bilan o'qishni farqi bor. Bilim bilan ham pul bilan diplom olsa bo'ladi. Bu talabaning o'z qo'lida. Ammo bilimi yo'q talaba bitirib kelib maktabda qanday dars o'ta oladi? ". Ushbu gaplar ustozlarimiz tomonidan ko'p ta'kidlab o'tiladi. Haqiqatdan ham konservatoriyaning pul bitirgan talaba jamiyatga zarar keltirmaydi . Ammo, tibbiyot sohasini pul bilan bitirgan talaba insonlar hayotiga " nuqta" qo'yib ketishi mumkin.

Talaba nega kitob o'qimay qo'ydi ? Bu haqida bir nechta sabablar mavjud:

1. Ijtimoiy tarmoqlar. 21-asr zamonaviy texnologiyalar asrida yashayapmiz. Google, Instagram, Telegram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning bir qismiga aylanib qoldi. Talabalar ham bu tarmoqlardan muntazam ravishda foydalanishadi. Ko'pchilik talabalar orasida ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketish holatlari kuzatilmoqda. Tuni bilan uxlamay ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va darsga kechikib kelish holatlari afsuski odatiy holatga aylanmoqda.

2. Pul topishga qiziqish. Talaba o'qishdan bo'sh vaqtlari pul topishga urinishadi. Turli ijtimoiy tarmoqlar va xizmat ko'rsatish sohalarida o'zlarini sinab ko'rishadi.



3. Telefondagi kitobni o'qish vaqtida ko'zning toliqishi va miyaning charchashi. Hozirgi kunda hamma kitoblarni elektron variantini internet orqali topish mumkin. Mamlakatimizdagi hamma universitet va institutlar o'zlarining Axborot Resurs Markazlarini tashkil etishgan. Ular o'z kitoblarini elektron variantini Telegram messengeriga joylab borishadi. Ammo telefondan uzoq muddat foydalanish ko'z toliqishi va miya charchashiga olib keladi

4. Maqsadsizlik. Abituriyent davrida o'quvchilar o'z oldiga talaba bo'lishni maqsad qiladilar. Talabalik davriga kelib o'quvchilar o'z oldilariga maqsad qo'ymaydilar. Auditoriyaga faqat hemisga "sababsiz" belgisi tushmasligi uchun kelib ketadilar va 4 yil faqat shu holat takrorlanadi.



Talabaniing maqsadi bora-bora faqat diplom olish bo'lib qoladi.

5. Video o'yinlar. Bu mavzuni alohida sabab qilib olishga qaror qildim. Negaki, so'nggi paytlarda yoshlar orasida video o'yinlarga mukkasidan ketish holatlari ko'plab kuzatilyapti. "PUBG Mobile", "Call Of Duty", "Free Fire", "Dream League" kabi o'yinlar nafaqat talabalar balki maktab o'quvchilari orasida ham ommalashib bormoqda. Inson miyasi o'yin o'ynash jarayonida kitob o'qishga qaraganda ikki barobar tezroq ishlaydi va charchaydi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish to'g'risida" NIZOM tasdiqlangan. Mamlakatimizdagi OTM lar so'nggi 3 yil ichida kredit-modul tizimiga o'tdi. Endi talabalar bir semestr davomida belgilangan balni to'play olmasalar yetmagan bal uchun pul mablag'i to'laydilar va qayta o'zlashtiradilar. Ammo 80 daqiqa maruza va 80 daqiqa talabalar uchun foydalimi? Facebook sahifasidagi ushbu murojaatni ko'rib chiqamiz:

“Professor Baxtiyor Mengliyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Ibrohim Abdurahmonovga murojaati:

Modul-kredit tizimiga o'tmas ekanmiz, oliy ta'limda yangilanish ham, o'qituvchida mas'uliyat ham bo'lmaydi. Bu tizimga to'laqonli o'tishimizga mustaqil ta'limning moliyalashtirilmaganligi sabab qilib ko'rsatilmoqda. Ammo muammoning optimal yechimi bor:

- 1) ma'ruza mashg'ulotlarini 50 daqiqaga tushirish;

- 2) seminar va amaliy mashg'ulotlarni bekor qilish;
- 3) tejalgan vaqt resursini mustaqil ta'limga berish;
- 4) ustama ish haqlarini mustaqil ta'limga yo'naltirish;
- 5) o'qituvchining har bir ish kuni uchun (taxminan) 10 talabadan onlayn va 10 talabadan oflayn mustaqil ta'limni qabul qilish grafigini ishlab chiqish;

Eslatma:

talabaning 80 daqiqa ma'ruza tinglashi samarasiz;

seminar va amaliy mashg'ulotlar ma'nan eskirdi;

amalda talaba bilan yakka tartibda ishlash tizimi yo'q." [3]

Xulosa. Talabalarni rivojlantirish maqsadida talabalar o'rtasida "Zakovat " o'yinlari , Sport musobaqalari , Fan Olimpiadalari sonini ko'paytirish; talabalarni "Yosh Kitobxon" ko'rik tanloviga jalb qilish; "Korrupsiya", Yoshlar orasida jinoyatchilikni oldini olish" kabi davra suhbatlari sonini ko'paytirish; ko'proq kutubxonalarda shug'ullanishga da'vat etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Talaba> [1]
2. <https://kun.uz/uz/news/2023/02/14/ozbekistonda-talabalar-soni-1-milliondan-oshdi> [2]
3. https://m.facebook.com/story.php/?id=100022449543403&story_fbid=1496878281070476 [3]